

Hujjat kodi: QL78313689

L.U.Anvarova
R.X.Xaitbayeva

Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
(U.Gaziyeva), Onalik
va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
(F.Fazilova), Tibbiy sug'urta boshqarmasi
(Sh.Almardanov), Klinik protokollar va
standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi
(Sh.Nurimova), Xususiy tibbiyot va JST masalalari
bo'limi (Sh.Gulyamov) mazkur buyruq bilan
tasdiqlangan psixologik yordam ko'rsatish
standartlarini (keyingi o'rinda – standartlar) barcha
davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlariga
yetkazilishini ta'minlasin.

Muddat: Invalid date

№400

28 Dekabr 2024

F.A.Fazilova

Бошқарма бошлиғи



Hujjat kodi: QL78313689



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG‘I**

2024 yil 25- dekabr

№ 400

Toshkent sh.

**Psixologiya bo‘yicha standartlarni tasdiqlash hamda amaliyotga joriy etish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi “Aholiga psixologik yordamni ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ–989-son Qonuni ijrosini ta‘minlash hamda psixologik yordam ko‘rsatish standartlarini tasdiqlash maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi “Aholiga psixologik yordamni ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ–989-son Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Psixologik yordam ko‘rsatish standartlari 1-ilovaga muvofiq;

Tibbiy psixologiya bo‘yicha klinik standartlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva), Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi (F.Fazilova), Tibbiy sug‘urta boshqarmasi (Sh.Almardanov), Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi (Sh.Nurimova), Xususiy tibbiyot va JST masalalari bo‘limi (Sh.Gulyamov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan psixologik yordam ko‘rsatish standartlarini (keyingi o‘rinda – standartlar) barcha davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlariga yetkazilishini ta‘minlasin.

4. Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi (Sh.Nurimova), Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi (X.Akilov), Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy-salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (Z.Ashurov) bilan birgalikda:

2025-yil 1-martdan boshlab mazkur buyruq bilan tasdiqlangan standartlarni amaliyotda keng tatbiq etish uchun Sog‘liqni saqlash vazirining 2024-yil 5-avgustdagi 257-son hamda 2024-yil 29-oktabrdagi 338-son buyruqlarida belgilangan tartibga asosan reja-jadvalga muvofiq malaka oshirish kurslari o‘tkazilishini ta‘minlasin;

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan standartlar amaliyotda keng tatbiq etilishini hamda standartlardagi tartib va ko‘rsatmalardan to‘liq foydalanishni tashkil etsin;

standartlar bo'yicha tibbiyot xodimlarini o'qitish va amaliyotga joriy etishda milliy klinik protokollarni qayta o'rganish orqali takomillashtirib borish choralari ko'rsin;

tashxislash va davolash jarayonida standartlardan to'liq foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida joylarda qo'llab-quvvatlovchi yordam, baholash va monitoring o'tkazish orqali amaliy yordam ko'rsatish ishlarini amalga oshirsin.

5. Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi (O'.Ismailov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan standartlar 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat, magistratura, klinik ordinatura bosqichlari, shuningdek, shifokorlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlariga kiritilgan holda ta'lim jarayonini tashkil qilinishini ta'minlasin.

6. Nazorat inspeksiyasi (A.Alijonov) rejali va rejadan tashqari tekshirishlarida mazkur buyruq bilan tasdiqlangan standartlarning tibbiyot amaliyotiga joriy etilishi va ularga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatish vazifasi yuklatilsin.

7. Raqamli texnologiyalarini joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Eshnazarov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan standartlarni vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

8. Matbuot xizmati bo'limi (F.Sanayev) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan standartlarning mazmun-mohiyatini yoritish bo'yicha tashviqot va targ'ibot ishlari o'tkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o'rinbosari F.Sharipov zimmasiga yuklansin.

Vazir



A. Xudayarov

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
2024 yil 25.12.2024
400 - sonli buyrug'iga
1-ilova

UMUMIY (NOTIBBIY) PSIXOLOGIYA BO'YICHA MILLIY STANDARTLAR

Toshkent - 2024

MUNDARIJA

1. Kirish.....
2. Asosiy qism
- 2.1. Umumiy qoidalar.....
- 2.2. Psixologik yordam ko'rsatishning kasbiy-axloqiy tamoyillari
- 2.3. Amaliyotda qo'llash uchun ruxsat etilgan psixologik yordam ko'rsatish usul va vositalari.....
3. Psixologik yordam ko'rsatishning umumiy tavsifi
- 3.1. Mijozlar (psixologik yordam oluvchilar) toifalari.....
- 3.2. Psixologik yordam ko'rsatish turlari, shakllari va davomiyligiga qo'yiladigan talablar
- 3.3. Psixologlarga qo'yiladigan malaka talablari
- 3.4. Psixologik yordamni rad etish yoki to'xtatish
- 3.5. Psixologik yordam ko'rsatish joyiga nisbatan qo'yiladigan talablar
- 3.6. Psixologik yordam so'ragan shaxsni ma'lumot bilan ta'minlash.....
- 3.7. Psixologik yordam ko'rsatish standartiga rioya etilmasligi bo'yicha da'vo va shikoyatlarni topshirish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqish tartibi
4. Xususiy tartibda psixologik yordam ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun malaka sertifikatini taqdim etish.....
5. Psixologik yordam ko'rsatish standartlarini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilotlar
6. Foydalanilgan adabiyotlar va resurslar ro'yxati.....

1. Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi talablari asosida yozilishi zarur.

2. Asosiy qism

2.1. Umumiy qoidalar

Ushbu standartlar aholiga psixologik yordam ko‘rsatish samaradorligi va sifatini ta‘minlash maqsadida joriy etiladi. Standartlar aholiga psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha yagona talablarni belgilaydi.

Mazkur standartlar O‘zbekiston Respublikasining “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni (2024-yil 5-noyabr, №ZRU-989), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2024-yil 30-sentyabr, № PP-345), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Malaka sertifikatlarini berish bo‘yicha davlat xizmatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi Qarori (2023-yil 30-noyabr, № 635), O‘zbekiston Standartlashtirish, Metrologiya va Sertifikatlashtirish agentligining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori (Davlat standarti (XALIKK-2020), Xodimlar va ishchilar kasblarining asosiy lavozimlari tasniflagichi)” (2021-yil 6-may, № 05-1288), O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining “Umumta‘lim maktablarida o‘qitish sharoitlari va tashkil etilishiga qo‘yiladigan sanitariya-epidemiologik talablar to‘g‘risida”gi Qarori (2016-yil 22-dekabr, SanPiN №0341-16)ga asoslanib ishlab chiqilgan.

Mazkur standartlarga ko‘ra, psixologik yordam ko‘rsatish jinsi, irqi va millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, qarashlari, jamiyatdagi mavqei, ma‘lumoti, kasbi yoki psixologik yordamga murojaat qilgan shaxs yoxud shaxslarning faoliyat turidan qat‘i nazar amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur standartlar ixtisoslashuv yo‘nalishi, ish joyi yoki ish haqini to‘lash shaklidan qat‘i nazar psixologik yordam ko‘rsatuvchi nodavlat va davlat tashkilotlari hamda psixologlar uchun majburiy hisoblanadi.

Ushbu standartlar yordamning individual yoki guruh shaklda, shuningdek, bevosita yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilishidan qat‘i nazar aholiga yordam ko‘rsatuvchi psixologlar tomonidan bajarilishi shart.

Standartlar psixologik yordam ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini baholash, shuningdek, turli muassasalarda psixologik yordam ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Standartlar psixologlarning dalillarga asoslangan yangi usullarni qo‘llashini cheklamaydi. Mazkur standartlar ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida olingan yangi ma‘lumotlarni hisobga olgan holda psixologik yordam ko‘rsatishga qo‘yiladigan yangi talablarni takomillashtirish imkoniyatini nazarda tutadi.

Ushbu standartlar minimal talablar hisoblanib, ular psixologik yordam ko‘rsatishga ixtisoslashgan har qanday nodavlat yoki davlat tashkiloti tomonidan

xizmat sifatini oshirish maqsadida takomillashtirilishi mumkin. Shuningdek, standartlar O‘zbekiston Respublikasining aholiga psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha qonunchiligidagi o‘zgarishlarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ushbu standartlarda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

mijoz yoki psixologik yordam oluvchi – psixologik yordam olish uchun murojaat qilgan shaxs va/yoki shaxslar guruhi;

inqiroz holati – hayotiy o‘zgarishlar va odatiy usullar bilan hal qilib bo‘lmaydigan psixologik muammolarni keltirib chiqaruvchi omillar va sharoitlar;

psixologik yordam ko‘rsatishning kasbiy-axloqiy tamoyillari – shaxsning har tomonlama kamol topishi va obro‘-e‘tiborini ta‘minlashga yo‘naltirilgan g‘oyalar, adolatli insonparvar va farovon jamiyat barpo etish, shuningdek, psixolog va psixologik yordam ko‘rsatuvchi tashkilotlarning kasbiy faoliyatiga oid axloqiy qoidalar;

psixolog – O‘zbekiston Respublikasining “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq psixologik yordam ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

psixologik yordam – psixologik yordam ko‘rsatish standartlariga muvofiq amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui bo‘lib, u inqirozli holatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, shaxslararo munosabatlar va ruhiy salomatlikni yaxshilash, shaxsni rivojlantirish yoki insonning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga qaratilgan psixologik ta‘sir ko‘rsatish;

psixologik muammo – shaxsning o‘zi, kasbiy faoliyati, boshqa shaxslar bilan munosabatlari, oiladagi muhit va/yoki shaxsiy hayotidagi boshqa muammolardan norozi bo‘lishi natijasida yuzaga keladigan ruhiy noqulaylik holati;

psixologik yordam ko‘rsatish standartlari – aholiga psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha yagona talablarni belgilovchi hujjat.

2.2. Psixologik yordam ko‘rsatishning kasbiy-axloqiy tamoyillari

2.2.1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuniga (2024-yil 5-noyabr, № ZRU-989) muvofiq, aholiga psixologik yordam ko‘rsatishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: qonuniylik, ixtiyoriylik, ijtimoiy himoya, inson huquq va erkinliklariga rioya etish, professionallik hamda axborotning maxfiyligini ta‘minlash.

2.2.2. Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarda faoliyat yurituvchi psixologlar, shuningdek, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan psixologik yordam ko‘rsatish psixologlarning yagona axloq kodeksida aks ettirilgan kasbiy-axloqiy tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim.

2.2.3. Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar, yuridik shaxslar, shu jumladan psixologlar jamoat birlashmasi, o‘zlari tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan psixologlarning axloq kodeksiga ega bo‘lishlari shart.

2.2.4. Psixologlarning axloq kodeksi kasbiy xulq-atvorning umumiy tamoyillari va axloqiy standartlarini o‘z ichiga oladi, jumladan:

hurmat, zarar yetkazmaslik, kompetentlik, mas‘uliyatlilik, halollik va adolatlilikning umumiy tamoyillari;

axloqiy masalalarni hal etish, psixologning kompetentligini ta'minlash, psixologning boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlari, maxfiylikni saqlash, o'z faoliyatini reklama qilish va ommaviy bayonotlar (shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida), hujjatlarni yuritish, xizmatlarga to'lov, psixologlarning ta'lim olishi va malakasini oshirishi, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini nashr qilish, diagnostika (baholash) o'tkazish, shuningdek, individual va guruhviy maslahatlar berish bilan bog'liq axloqiy standartlar;

psixologlar jamoat birlashmasi a'zolari tomonidan axloq kodeksi buzilganda qo'llaniladigan jarayonlar haqidagi ma'lumot.

2.3. Amaliyotda qo'llash uchun ruxsat etilgan psixologik yordam ko'rsatish usul va vositalari

2.3.1. Amaliyotda qo'llash uchun ruxsat etilgan psixologik yordam ko'rsatish usul va vositalari psixologning axloq kodeksida keltirilgan kasbiy-axloqiy tamoyillar asosida qo'llaniladigan usul va vositalar hisoblanadi.

2.3.2. Psixologik yordam ko'rsatishning usul va vositalari mijozga nisbatan jismoniy yoki psixologik zo'ravonlik qo'llanilishini o'z ichiga olmaydi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonunchilik talablariga bo'ysunadi. Ular shaxsni qonunbuzarlik yoki jinoyat sodir etish, o'z joniga qasd qilish, qimor va boshqa xavf asosiga qurilgan o'yinlarda ishtirok etish, shuningdek, boshqa asotsial xatti-harakatlarga undashni nazarda tutmaydi.

2.3.3. Amaliyotda qo'llash uchun ruxsat etilgan psixologik yordam ko'rsatish usul va vositalari o'zida dalillarga asoslangan holda ishlab chiqilgan va amaliyot doirasida qo'llaniladigan usul va vositalarni namoyon yetadi (Evidence-Based Practice in Psychology).

2.3.4. Amaliyotda qo'llash uchun ruxsat etilgan psixologik yordam ko'rsatish usul va vositalarining maqsadi - aholiga psixologik yordam ko'rsatish sohasidagi munosabatlarni samarali tartibga solish, shuningdek, psixologik profilaktika, psixologik ko'rik (psixologik baholash va diagnostika), psixologik reabilitatsiya, psixologik korreksiya, psixologik maslahat, psixologik trening va mijoz bilan o'zaro hamkorlik kabi ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqlangan usullardan foydalanish orqali samarali psixologik amaliyotni ta'minlash.

2.3.5. Psixologiyada dalillarga asoslangan amaliyot ilmiy tadqiqotlar natijalari, psixologlar amaliy tajribasi integratsiyasini, shuningdek, mijozning o'ziga xos xususiyatlari, uning ijtimoiy-madaniy sifatlari va afzalliklarini hisobga olishni anglatadi.

2.3.6. Amaliyotda qo'llash uchun ruxsat etilgan psixologik yordam ko'rsatish usul va vositalari mijozning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq huquqlari, shuningdek, uning sog'lig'i, jinsi, yoshi, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari (bandlik turi, millati va dini, oilaviy holati), qadriyat va e'tiqodlari, shuningdek, inqiroz holati va hayotidagi voqea-hodisalarning o'ziga xos jihatlari inobatga olinganda samarali hisoblanadi.

2.3.7. Amaliyotda qo'llash uchun ruxsat etilgan psixologik yordam ko'rsatish usul va vositalari mijozning psixologni, yordamning turi va shaklini, shuningdek, psixologik yordam ko'rsatish shart-sharoitlarini mustaqil tanlash, psixologning

malaka sertifikati bilan tanishish huquqi va psixologik yordamdan kutilmalari inobatga olinganda samarali hisoblanadi.

2.3.8. Amaliyotda qo‘llash uchun ruxsat etilgan psixologik yordam ko‘rsatish usul va vositalari mijozning psixologik muammosiga qarab, yordam jarayoniga boshqa mutaxassislar (jumladan, ijtimoiy xodim, shifokor, psixiatr, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organi vakili)ni jalb qilish, shuningdek, mijozning atrofidagi shaxslar (jumladan, o‘qituvchilar va oila a‘zolari)ning ishtirok etishi nazarda tutilganda samarali hisoblanadi.

2.3.9. Psixologik yordam ko‘rsatish usul va vositalarining psixologik muammolarni hal qilishdagi samaradorligi tegishli ilmiy-amaliy adabiyotlarda tasdiqlangan bo‘lsa, ruxsat etilgan hisoblanadi. Ruxsat etilgan usul va vositalarga psixodinamik, shaxslararo munosabatlarga qaratilgan, kognitiv-behexavioral, behexavioristik, emotsional fokusli va oilaviy terapiya va boshqalar ham kiradi.

3. Psixologik yordam ko‘rsatishning umumiy tavsifi

3.1. Mijozlar (psixologik yordam oluvchilar) toifalari

3.1.1. Mijoz yoki psixologik yordam oluvchi - bu inqirozli holatda bo‘lgan, psixologik muammosi mavjud va psixologik yordam olish uchun psixologga murojaat qilgan shaxs yoki shaxslar guruhi hisoblanadi.

3.1.2. Psixologik yordam oluvchilar ushbu yordamni davlat organlari yoki boshqa tashkilotlarda faoliyat yurituvchi psixologlardan, shuningdek, o‘z faoliyatini shaxsiy tartibda amalga oshiruvchi yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlardan bepul yoki pullik asosda olishlari mumkin.

3.1.3. Psixologik yordam oluvchilar bolalar, yoshlar, kattalar, oilalar va oilaviy juftliklar, individual yoki guruhiy shaklda psixologik yordam olayotgan, jismoniy va psixologik sog‘lom shaxslar, ma‘lum psixologik muammolar yoki inqirozli holatda bo‘lgan kishilarni o‘z ichiga oladi.

3.1.4. Davlat tomonidan bepul psixologik yordam kafolatlangan shaxslar toifasiga quyidagilar kiradi:

favqulodda holatlar va noxush vaziyatlardan zarar ko‘rgan shaxslar, ularning oila a‘zolari, shuningdek, favqulodda holatlar va noxush vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan insonlar;

terroristik harakatlar natijasida zarar ko‘rganlar;

ijtimoiy himoya yagona reestriga kiritilgan kam ta‘minlangan oilalar;

yolg‘iz yashovchi keksalar va tashqi parvarishga muhtoj nogironligi bo‘lgan shaxslar;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar;

doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslar;

tazyiq va zo‘ravonlikka uchraganlar;

davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va maktab o‘quvchilari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar.

3.1.5. Psixologik yordam oluvchilar O‘zbekiston Respublikasining "Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida"gi Qonunida belgilangan huquq va majburiyatlarga, shuningdek, amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlarga ega.

3.2. Psixologik yordam ko‘rsatish turlari, shakllari va davomiyligiga qo‘yiladigan talablar

3.2.1. Qonun bilan belgilangan psixologik yordam turlari quyidagilardir: psixologik profilaktika, psixologik ko‘rik (psixologik baholash va diagnostika), psixologik rehabilitatsiya, psixologik korreksiya, psixologik maslahat, psixologik trening.

3.2.2. Psixologik yordam qonun bilan belgilangan shakllarda bevosita yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, individual yoki guruh shaklida ko‘rsatilishi mumkin. Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish favqulodda, bir martalik, qisqa muddatli va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin.

3.2.3. Ma‘lum bir psixologik yordam turi va shakli mijoz tomonidan psixologning tavsiyalariga asoslanib tanlanadi, ushbu tavsiyalar mijozning psixologik holati va psixologik muammolarining xususiyatlariga qarab beriladi.

3.2.3.1. Bevosita psixologik yordam shakli psixolog va yordam oluvchi o‘rtasidagi shaxsiy o‘zaro aloqani, masofaviy shakl esa psixolog va yordam oluvchi o‘rtasida sifatli o‘zaro aloqani ta‘minlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

3.2.3.2. Individual yordam maxfiy sharoitda, uchinchi shaxslarning ishtirokisiz ko‘rsatiladi, faqatgina voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ularning qonuniy vakillari ishtirok etishi mumkin. Guruhiy yordam bir vaqtning o‘zida bir guruh mijozlarga ko‘rsatiladi va yordamni taqdim etishda axloqiy normalarga rioya qilinadi.

3.2.3.3. Favqulodda psixologik yordam inqirozli yoki favqulodda voqea natijasida zarar ko‘rgan shaxs yoki shaxslar guruhining ayni vaqtdagi psixologik, psixofiziologik holatini va salbiy emotsional tajribalarini tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon inqiroz holatiga mos kasbiy usullar yordamida amalga oshiriladi.

3.2.3.4. Bir martalik psixologik yordam psixologik muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, mijozga bir marta psixolog bilan uchrashish orqali muammoga yechim topish uchun zarur bo‘lgan holatni yaratish maqsadida amalga oshiriladi. Bu yordam mos usullarni, jumladan, mijozning xabardorligini oshirishni o‘z ichiga oladi.

3.2.3.5. Qisqa muddatli yordam aniq va dolzarb muammoni tez fursatda hal qilishga qaratilgan bo‘ladi. Uzoq muddatli yordam esa shaxsiy muammolarni chuqur tahlil qilish va hal etish, shuningdek, uzoq muddatli korreksiya uchun qo‘llaniladi.

3.2.4. Barcha psixologik yordam turlari va shakllari psixologiyada ilmiy asoslangan amaliyot (Evidence-Based Practice in Psychology) talablariga va psixologik yordam ko‘rsatishning professional-axloqiy tamoyillariga rioya qilishi kerak. Zarur bo‘lganda, psixologik yordam o‘zaro hamkorlikka asoslangan yondashuv asosida, boshqa mutaxassislar (shu jumladan, ijtimoiy xodim, shifokor,

psixiatr, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakili)ni jalb qilish orqali amalga oshirilishi kerak.

3.2.5. Psixologik profilaktika – bu, psixologik muammolarni keltirib chiqaradigan omillar va sharoitlarning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

3.2.5.1. Psixologik profilaktika psixologik muammolarning oldini olish va ularni erta aniqlash, shuningdek, aholi o'rtasida umumiy psixologik salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun tegishli shart-sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi.

3.2.5.2. Psixologik profilaktika ta'lim dasturlarini, psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan tadbirlarni, seminarlar, treninglar va boshqa faoliyat shakllarini o'z ichiga olishi mumkin, bu faoliyat shakllari aholida asosiy psixologik bilimlarni shakllantirish, psixologik madaniyatni oshirish va yangi bilimlarni shaxsiy rivojlanishda qo'llash qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

3.2.5.3. Psixologik profilaktika psixologik gigiyena (hayot tarzi, xulq-atvor va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish)ni, psixologik ma'rifat (psixologik madaniyatni rivojlantirish, aholini farovonlikka erishish borasidagi psixologik usullar haqida xabardor qilish) va bevosita psixologik profilaktika (psixika va emotsional holatga atrof-muhit salbiy omillari zararli ta'sirining oldini olish)ni o'z ichiga oladi.

3.2.6. Psixologik ko'rik shaxsning normal hayot kechirishiga to'sqinlik qiladigan, uning xulq-atvoriga va boshqa shaxslar bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni aniqlash, psixologik yordam ko'rsatishning turi, shakli, hajmi va muddatlarini belgilash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni baholash maqsadida o'tkaziladi. Psixologik ko'rik psixologik baholash va diagnostikani o'z ichiga oladi.

3.2.6.1. Psixologik baholash va diagnostika shaklidagi psixologik ko'rik aholining psixologik salomatligini ta'minlash, mijozga psixologik muammo va inqiroz holatlarini hal etishda yordam berish, ijtimoiy moslashuv va rehabilitatsiya, shaxsiy rivojlanish, o'zini o'zi namoyon etish bilan bog'liq individual ko'nikmalarni mustahkamlash, shuningdek, hayot tarzini yaxshilash chora-tadbirlari doirasida o'tkaziladi.

3.2.6.2. Psixologik baholash va diagnostika shaklidagi psixologik ko'rik boshqa psixologik yordam turlarini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3.2.6.3. Psixologik ko'rik psixologik baholash va diagnostikani o'tkazish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, natijalarni izohlash, shuningdek, psixologik yordam oluvchiga xulosa tayyorlash va uni taqdim etishni nazarda tutadi.

3.2.6.4. Psixologik ko'rikni o'tkazishda valid va ishonchli metod hamda metodikalar qo'llanilishi kerak, ularning natijalari ilmiy jurnal va nashrlarda chop etilgan bo'lishi lozim. Ushbu metod va metodikalar yosh davrlariga oid va boshqa jihatlarni, shuningdek, shaxs yoki guruhning individual, shaxsiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'llanilishi zarur.

3.2.6.5. Psixologik ko'rik natijalari psixologik baholash va diagnostika shaklida, aniq, mantiqiy va zarurat bo'lsa, psixologik test natijalari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Mijozga tavsiyalarni ham o'z ichiga olgan va axloqiy tamoyillarga rioya qilingan va oddiy tilda yozilgan xulosa taqdim etilishi lozim.

Xulosa mazmuni uchinchi shaxsga, shuningdek, bunday ma'lumotlarni olishga huquqi bo'lmagan yoki malakasi yetmagan shaxslarga oshkor qilish qat'iyan taqiqlanadi.

3.2.7. Psixologik reabilitatsiya – psixologik muammolarga ega bo'lgan shaxsning ijtimoiy moslashuviga yordam berish va ushbu sohada uning qobiliyatlarini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

3.2.7.1. Psixologik reabilitatsiya mijozning asosiy muammolarini aniqlash, uning emotsional va kognitiv qiyinchiliklarini yengishga yordam berish, atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish usullarini o'rgatish, uning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

3.2.7.2. Psixologik reabilitatsiya psixologik yordam ko'rsatishning tibbiy bo'lmagan, balki tizimli biopsixosotsial modelidir. Psixologik reabilitatsiya bosqichma-bosqich, mijozning holatidagi o'zgarish va rivojlanishni baholashga asoslanib amalga oshirilishi kerak. Reabilitatsiya dasturi moslashuvchan bo'lishi, ya'ni mijozning holati va sharoitidagi o'zgarishlarga qarab, unga tuzatishlar kiritishni nazarda tutishi zarur.

3.2.7.3. Psixolog psixologik reabilitatsiyani amalga oshirayotganda mijozning individual xususiyatlarini, uning xohish-istaklari, salohiyati, o'z taqdirini o'zi hal etish huquqi va kuchli tomonlarini inobatga olishi lozim.

3.2.7.4. Psixologik reabilitatsiya psixolog tomonidan mijozning sog'lig'i, emotsional holati, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillarni hisobga olgan holda kompleks tarzda o'tkazilishi kerak, chunki ushbu omillar mijozning psixologik muammosi va inqiroz holatiga ta'sir ko'rsatadi.

3.2.8. Psixologik korreksiya shaxsdagi psixologik muammolarga sabab bo'luvchi shaxs xususiyatlari va xulq-atvoridagi nuqsonlarni tuzatishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat.

3.2.8.1. Psixologik korreksiya psixolog tomonidan mijozning psixologik va shaxsiy rivojlanishi, shuningdek, uning atrofdagilar bilan munosabatlarini o'zgartirishga qaratilgan sof va konstruktiv usullar qo'llashni anglatadi.

3.2.8.2. Psixologik korreksiya quyidagi talablarga javob berishi kerak: ta'sir ko'rsatishning maqsadga yo'naltirilganligi, individual yondashuv (mijozning shaxsiy, gender, yosh va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olish), maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi (ularning aniqligi, ko'lami va mijoz uchun ahamiyatliligi), mijozning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash va unda moslashuvchan qobiliyatlarni shakllantirish (mijozda o'ziga ishonch, o'ziga o'zi yordam va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish).

3.2.8.3. Psixologik korreksiya tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi kerak, bunda mijozning kognitiv, emotsional va xulq-atvor xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik inobatga olinadi. Amalga oshirish jarayonida psixologik korreksiyaning moslashuvchanligi, shuningdek, ijobiy o'zgarish va undagi samaradorlikni baholash muhim ahamiyatga ega. Baholash kuzatuv, mijoz hisobotlari tahlili va diagnostik metodikalarni qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin.

3.2.9. Psixologik konsultatsiya - bu shaxsning psixologik muammolarini tushunish va hal etishda ko'maklashishga qaratilgan psixologik yordam.

3.2.9.1. Psixologik konsultatsiya tuzilmaviy va maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, mijozning ehtiyojlarini baholash, ish reja ishlab chiqish va mijoz bilan maqsadlarni kelishishni taqozo etadi.

3.2.9.2. Psixologik konsultatsiya mijoz uchun xavfsiz, muhokama qilinmaydigan va o'z hissiyotlarini erkin ifodalashga imkon beradigan muhitda amalga oshirilishi kerak.

3.2.9.3. Psixologik konsultatsiya mijozning individual xususiyatlari, uning talablari va jarayon davomida yuz beradigan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, ish uslublarining moslashuvchanlik talabiga asoslanib amalga oshirilishi kerak.

3.2.9.4. Psixologik konsultatsiya puxta o'ylangan holda yakunlanishi, bunda mijozni o'z muammolarini mustaqil hal etishga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Zarurat tug'ilganda, mijoz boshqa mutaxassisga yo'naltirilishi yoki unga boshqa sohadagi mutaxassislar (jumladan, ijtimoiy xodim, shifokor, psixiatr yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi vakili) tomonidan qo'llab-quvvatlashning muqobil shakli taklif qilinishi mumkin.

3.2.10. Psixologik trening shaxsda ma'lum ko'nikmalar, xatti-harakatlar yoki psixologiyaga oid yangi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar va mashqlar majmuasidan iborat bo'lib, ular shaxsiy rivojlanish, inqirozli vaziyatlardan chiqish yoki shaxsning ma'naviy rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash uchun zarurdir.

3.2.10.1. Psixologik trening — inson shaxsining barcha jihatlari, sifatlari, ko'nikma va malakalari, xatti-harakatlari, o'zini anglash va o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan guruhiy ish usuli bo'lib, maxsus ilmiy ma'lumotlarga asoslangan dastur asosida amalga oshiriladi.

3.2.10.2. Psixologik trening quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak: modellashtirish, o'rgatish, tizimli refleksiya va guruhiy ish shakli. Treningning maqsadlari aniq, erishish mumkin va o'lchab bo'ladigan bo'lishi lozim. Trening dasturi uning maqsadlariga mos keluvchi turli usul va texnikalarni o'z ichiga olishi kerak. Dastur mazmuni tuzilmali bo'lishi, ishtirokchilarning gender, yosh, shaxsiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olishi, ular uchun tushunarli va ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur.

3.2.10.3. Psixologik trening samaradorlikni baholash tamoyili asosida amalga oshirilishi kerak. Psixolog treningdan oldingi va keyingi natijalarni monitoring qilish va baholash tartiblarini belgilashi lozim. Buning uchun turli xil qayta aloqa shakllari, testlar, ishtirokchilarning o'zini baholashi va o'zgarishlar dinamikasini kuzatish usullari qo'llanilishi mumkin.

3.2.10.4. Psixolog trening ishtirokchilarining psixologik va jismoniy xavfsizligini ta'minlashi kerak. Trening o'tkaziladigan joy xavfsiz, qulay va uning formatiga mos bo'lishi lozim.

3.2.11. Sud-psixologik ekspertizasi - bu tergov qilinayotgan (sudlanayotgan) shaxs, mahkum, guvoh va jabrlanuvchi, da'vogar va javobgarning tergovga, sudga yordam beradigan shaxsi va faoliyatiga oid ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun xizmat qiladigan psixologik tadqiqotlar tizimi.

3.2.11.1. Sud-psixologik ekspertizasi ekspert-psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

3.2.11.2. Tergovchining qarori yoxud sudning ajrimi Rasmiy hujjat sifatida ekspertiza o'tkazish uchun asos hisoblanadi. Fuqarolik ishlari bo'yicha advokatlar tomonidan ham ekspertiza tayinlash huquqi belgilangan.

3.2.11.3. Sud-psixologik ekspertizaning predmetini tekshirilayotgan shaxsning emotsional holatiga bog'liq bo'lgan somatik mavqei, yoshi va psixofiziologik imkoniyatlari, shuningdek shaxsiy jihatlari hisobga olingan holda, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan va muayyan huquqiy oqibatlariga olib kelgan psixik faoliyatining individual xususiyatlari va amalga oshirish qonuniyatlari tashkil qiladi.

3.2.11.4. Sud-psixologik ekspertizasi psixologiya yo'nalishida bakalavr, magistratura, doktorantura (PhD, DSc) va unga tenglashtirilgan yoki undan yuqori bo'lgan xorijiy davlatlar ilmiy darajalari, qonunchilikda belgilangan tartibda oliy psixologik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi.

3.2.12. Psixologik yordamning davomiyligi uning turi, shakli, mijozning xususiyatlari, psixologik muammosi va inqirozli vaziyatiga qarab farq qilishi mumkin. Yordam bir martalik konsultatsiyadan 10-20 uchrashuvgacha yoki yillar davomida ko'rsatilishi ehtimoli bor.

3.2.12.1. Psixologik yordam davomiyligini belgilashda psixolog quyidagilarni hisobga olishi kerak:

mijoz bilan dastlabki uchrashuvlar davomida olingan ma'lumotlar (bu yordamning rejasini, haftalik uchrashuvlar sonini va ularning davomiyligini aniqlashga yordam beradi);

psixologik yordam davomiyligi va uning samaradorligi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik, ya'ni yordam davomiyligining oshishi bilan mijozda ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelishi;

psixologik yordam ko'rsatish jarayonida mijoz bilan kelishilgan maqsadlarga erishish darajasi;

psixologik yordam samaradorligiga qarab uchrashuvlar sonini uzaytirish mumkinligi, shuningdek, mijozning psixologik muammosi, inqirozli holati va umumiy ahvolini hisobga olib, yangi maqsadlar qo'yish ehtimoli;

mijozning xizmatlar uchun to'lov qila olish imkoniyati.

Ushbu omillar psixologik yordamni mijozning ehtiyojlariga mos ravishda rejalashtirishga imkon beradi.

3.2.13. Psixologik yordam quyidagi hollarda to'xtatiladi:

psixologik yordamning maqsadlariga erishilganligi aniq bo'lsa;

mijoz psixologik yordamdan foyda olmayotgan bo'lsa;

psixolog mijozning psixologik muammosini hal qilishga yoki inqirozli holatni yengib o'tishiga yordam bera olmasa;

psixologning bandligi, sog'ligi yoki boshqa omillar (masalan, boshqa shahar yoxud mamlakatga ko'chib o'tishi) mijoz bilan kasbiy munosabatlarni davom ettirishni imkonsiz qilsa.

3.3. Psixologlarga qo'yiladigan malaka talablari

3.3.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, aholiga psixologik yordam ko'rsatish sohasida belgilangan talablarga asoslanib, barcha turdagi psixologik yordamni (psixologik profilaktika, psixologik ko'rik, psixologik reabilitatsiya, psixologik korreksiya, psixologik konsultatsiya, psixologik trening) samarali amalga oshirish uchun psixologlar muntazam ravishda malaka oshirishdan o'tishlari kerak.

3.3.2. Psixologik yordamni samarali amalga oshirish, jumladan, psixologik reabilitatsiya, psixologik korreksiya, psixologik konsultatsiya va psixologik treningni tashkil etish, shuningdek, psixologik toliqishning oldini olish va hissiy barqarorlikni saqlash uchun psixolog muntazam ravishda tajribali mutaxassislar suhbatidan o'tishi va psixoterapevtik jarayonlarda ishtirok etishi lozim.

3.3.3. Psixologlarga qo'yiladigan malaka talablari psixologik yordam turlariga nisbatan tatbiq etiluvchi O'zbekiston Respublikasining Milliy malakalar ramkasida belgilangan "bilim" va "ko'nikma" ("qobiliyat") ko'rsatkichlarini hisobga oladi.

3.3.4. Psixologlarga qo'yiladigan umumiy malaka talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

psixologiya yo'nalishida bakalavr, magistratura, doktorantura (PhD, DSc) va unga tenglashtirilgan yoki undan yuqori bo'lgan xorijiy davlatlar ilmiy darajalari, qonunchilikda belgilangan tartibda oliy psixologik ma'lumotga ega bo'lish yoki psixologiya mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlov kurslaridan o'tganlik;

Klinik psixolog - psixologiya mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan, klinik psixologiya, patopsixologiya va sud psixologiyasi bo'yicha qayta tayyorlov amaliyotidan o'tgan, psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixokorreksiya va psixologik maslahat metodlarini mukammal biluvchi mutaxassis;

psixologik yordam ko'rsatishni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini bilish; mijozga psixologik yordam haqida ma'lumot berish bo'yicha bilim, ko'nikma va qobiliyatga, psixologning axloq kodeksi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish va uni real psixologik yordam ko'rsatish jarayonlarida qo'llash; mijoz bilan ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatlarni o'rnatish, faol tinglash bo'yicha ko'nikma va qobiliyatga egalik; psixologik yordamning turi va shakliga mos hujjatlarni yuritish bo'yicha malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish; shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, takomillashuv bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash.

3.3.5. Psixologik profilaktika bilan shug'ullanuvchi psixolog:

Fundamental klassik va zamonaviy psixologik nazariyalar (masalan, psixoanaliz, gumanistik psixologiya, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi va boshqalar)ni, insonning kognitiv, emotsional, xulq-atvor va shaxsiy xususiyatlari hamda ularning boshqa odamlarga va atrof-muhitga bo'lgan ijtimoiy oqibatlari, inson xulq-atvorini o'zgartirish yoki boshqarish uchun ishlatiladigan psixologik usullarni **bilishi**;

psixologik diagnostikani turli usullar yordamida amalga oshirish (psixodiagnostik metodikalar, testlar, suhbatlar, kuzatish kabi), diagnostika natijalarini tahlil qilish va mijozlar uchun tavsiyalar ishlab chiqish, individual va

guruhiy psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash, muloqotni o'rnatish va jarayonni qo'llab-quvvatlash, mijozlarga o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishda yordam berish, emotsional savodxonlikni rivojlantirish, murakkab vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash va professionallikni namoyon etish, o'z emotsional holatini boshqarish va uni nazorat qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

3.3.6. Psixologik ko'rik bilan shug'ullanuvchi psixolog:

psixologik diagnostikaning nazariy asoslari, psixometrik tamoyillar va baholash usullari, shuningdek, psixologik diagnostika vositalari, psixodiagnostik usullar tasnifi va ularni qo'llash tartibi, oddiy va maxsus psixologik testlarni o'tkazish, baholash va talqin qilish tamoyillari, diagnostikaning turli usullariga nisbatan qo'llaniladigan me'yorlar va standartlarni **bilishi;**

psixologik ko'rikni o'tkazish orqali psixologik muammolar va inqirozli holatlarni aniqlash, shuningdek, psixologik yordamning shakli va hajmini belgilash, kasbiy psixologik testlar va so'rovnomalardan foydalanish, psixologik ko'rik natijalari bo'yicha xulosalar tuzish, psixologik ko'rik chog'ida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish, diagnostik jarayonni o'tkazish, diagnostik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun kompyuter dasturlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

3.3.7. Psixologik rehabilitatsiya bilan shug'ullanuvchi psixolog:

psixologik rehabilitatsiyaning nazariy asoslari, jumladan, shaxsni rehabilitatsiya qilishda biologik, psixologik va ijtimoiy omillar hisobga olinadigan biopsixosotsial yondashuv, psixologik rehabilitatsiya tamoyillari (kuchli jihatlarga e'tibor qaratish, mijozning o'zini o'zi anglashi)ni; hayot sifati va psixologik salomatlikni yaxshilashga oid moslashuv, jarohatdan keyingi tiklanish va rivojlanish nazariyalarini; rehabilitatsiyaning turli usullari va yondashuvlari (kognitiv xulq-atvor va relaksatsiya texnikalari, stressni boshqarish usullari, jarohatdan keyingi stress bilan ishlash metodlarini; psixik kasalliklarga ega bo'lgan yoki inqirozli vaziyatlarni boshdan kechirgan mijozlar bilan ishlash xususiyatlari, rehabilitatsiya jarayonida ijobiy o'zgarishlarni baholash va monitoring qilish uchun psixologik usullar)ni **bilishi;**

rehabilitatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish, mijozning kuchli tomonlarini aniqlash va rehabilitatsiya rejasini tuzish, mijozga tiklanishning joriy bosqichida e'tibor qaratish, yangi hayot sharoitlariga moslashishda psixologik ko'maklashish, shuningdek, inqirozli vaziyatlarni yengib o'tishda qo'llab-quvvatlash, mijozning psixologik holatini muntazam baholash va uning holatidagi dinamikani monitoring qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

3.3.8. Psixologik korreksiya bilan shug'ullanuvchi psixolog:

psixologik korreksiya usullarining nazariy asoslari (psixodinamik, gumanistik, kognitiv xulq-atvor va ekzistensial yondashuvlar)ni; psixik rivojlanish xususiyatlari va korreksiyaning talab qiluvchi buzilishlar (tashvish, depressiya va xulq-atvor buzilishlari kabi holatlar)ni; psixologik rivojlanishning individual xususiyatlarini maqsadga muvofiq va konstruktiv ravishda o'zgartirishga yordam beruvchi usullar

va texnikalarni; korreksion ishda individual va guruhiy yondashuvlar tamoyillari, ularni mijoz ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatlarini **bilishi**;

dastlabki diagnostika va holatni baholash, mijozning holatini aniqlash va korreksiya dasturini ishlab chiqish; korreksion mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish; mijozning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tushunarli va xavfsiz shaklda reja tuzish va uni amalga qo'llash; mijozni o'zini o'zi kuzatish va o'zgarishlarni anglashiga rag'batlantirish; mijozni o'zgarish jarayonida refleksiya va o'zini o'zi anglashiga yo'naltirish; boshqa mutaxassislariga yo'naltirish zaruratini aniqlash, zarur hollarda boshqa mutaxassislarning yordamini tavsiya qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

3.3.9. Psixologik konsultatsiya bilan shug'ullanuvchi psixolog:

psixologik konsultatsiyaning nazariy asoslari, uning jarayoni va bosqichlarini (aloqa o'rnatish, baholash, intervensiyalar, yakunlash); psixodinamik, gumanistik, kognitiv xulq-atvor, ekzistensial yo'nalishlarni o'z ichiga olgan turli konsultatsion yondashuvlarni; psixologik konsultatsiyaga oid motivatsiyani aniqlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan psixologik konsultatsiya uchun foydalanishni **bilishi**;

individual va guruhiy konsultatsiyalarni har bir mijozning ehtiyojlari va xususiyatlariga moslashtirib o'tkazish; sessiyalar tartibini ishlab chiqish, asosiy mavzular va konsultatsiya maqsadlarini aniqlash, konsultatsiya usullarini tanlash va taxmin, farazlarni shakllantirishda mijozning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olish; mijozning ehtiyojlari, qadriyatlari, resurslari va ichki ziddiyatlarini aniqlash uchun usullar va texnikalarni qo'llash; kerakli kompyuter dasturlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va onlayn-konsultatsiya tizimlaridan foydalanish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

3.3.10. Psixologik trening o'tkazuvchi psixolog:

ijtimoiy psixologiyaning asosiy qoidalari (guruhning rivojlanish bosqichlari va guruh dinamikasi); trening o'tkazish tamoyillari; trening guruhlarining rivojlanish bosqichlari; guruh ichidagi dinamika va o'zaro ta'sir jarayonlari; xulq-atvordagi o'zgarishlar, ko'nikmalarni rivojlantirish va yangi xulq-atvor modellariga moslashishga ta'sir etuvchi psixologik jarayonlar; trening ishtirokchilarining dastlabki holati va trening davomida yuzaga keladigan dinamikani tahlil qilish uchun asosiy psixodiagnostika usullarini **bilishi**;

ishtirokchilar tarkibini hisobga olgan holda trening dasturlarini ishlab chiqish; treningni o'tkazish tamoyillarini amalga qo'llash, treningda turli interaktiv metodlardan foydalanish; guruh diagnostikasini o'tkazish, guruh dinamikasi va ishtirokchilarning kayfiyatini baholash orqali muammolarni o'z vaqtida aniqlash va dasturga o'zgartirishlar kiritish; amaliy mashqlar va metodlarni ishtirokchilarning ehtiyojlariga moslashtirish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

3.3.11. Klinik psixologiya bilan shug'ullanuvchi psixolog:

Aholiga tibbiy-psixologik yordam ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni; umumiy psixologiyaning nazariy va uslubiy asoslari, klinik psixologiya, shaxs psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi, klinik psixodiagnostika, neyropsixologiya, psixoterapiya va psixologik maslahat, klinik va

psixologik reabilitatsiya, dizapatsiya holatlari, xatti-harakatlarning buzilishini; psixiatriya, psixosomatik kasalliklar klinikasi, tibbiy reabilitatsiya, dezadaptatsiya holatlari va xatti-harakatlarning buzilishini; intellekt, hissiy-affektiv, motivatsion, irodaviy sohalarni; shaxs xususiyatlari; psixologik muammolar, ziddiyatlarning mazmuni va jiddiyligi, psixologik moslashuv darajasi va usullarini; shaxslararo munosabatlar (oilaviy, kasbiy va hayotning boshqa sohalarida)ning psixologik qonuniyatlarini; psixik faoliyat va shaxs buzilishlarini psixodiagnostik sindromli tahlil qilishning nazariy asoslari va tamoyillarini **bilishi**;

klirik-psixologik yordam ko'rsatishni tashkil etishning umumiy masalalari, turli kasalliklar, dezadaptatsiya holatlari, xulq-atvor buzilishlari, shu jumladan inqirozli va ekstremal vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish va reabilitatsiya jarayonini tashkil etish; mijozning muammolari (shikoyatlari) va ehtiyojlari, uning ruhiy funksiyalari va jarayonlarining holati haqida ma'lumot to'plash va tahlil qilish; maqsadlar va ishlab chiqilgan tadqiqot rejasiga muvofiq klinik-psixologik tadqiqot o'tkazish, klinik-psixologik tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish va sharhlash; bemorning (mijozning) ruhiy salomatligi holatini va moslashish qobiliyatini klinik va psixologik diagnostika qilish usullarini qo'llash, psixodiagnostika, davolash, reabilitatsiya yoki profilaktika vazifalariga qarab, uning aqliy faoliyati va shaxs tarkibidagi buzilmagan va buzilgan aloqalarni baholash; tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislariga bemorlar bilan o'zaro munosabat masalalari bo'yicha psixologik maslahatlar o'tkazish, muassasada qulay psixologik va terapevtik muhit yaratish; favqulodda vaziyatda shoshilinch psixologik yordam ko'rsatish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

3.3.12. Ekspert-psixolog:

Umumiy psixologiya, klinik psixologiya, yosh davrlariga oid psixologiya, ijtimoiy psixologiya, patopsixologiya, psixodiagnostika asoslarini; professional faoliyatda davlat sirlari va axborot xavfsizligini, maxfiylikni ta'minlash borasida huquqiy talablarni; ekspertlar komissiyasi va mutaxassislar guruhi ishini tashkil qilish qobiliyatiga ega bo'lish; ish yuritish va xizmat vazifalari, huquqiy normativ hujjatlar talablari asosida kasbiy faoliyatini tashkil qilish asoslarini; tadqiqot va sud ekspertiza o'tkazishning nazariy, metodologik, protsessual va tashkiliy asoslarini; huquqni muhofaza qiluvchi organlar subyektlariga sud ekspertizalari o'tkazish va savollar doirasida maslahat berish usullarini **bilishi**;

tadqiqotga doir chet el va mahalliy amaliyot, ilmiy axborot, sud ekspert amaliyotini tahlil qila olish; amaliy, ilmiy tadqiqot metodlarini ishlatish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash; tadqiqot mavzusiga doir xulosalarni umumlashtirish va izohlash; tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishda mutaxassis sifatida ishtirok etish; professional faoliyatda sudga oid ekspert tadqiqotlarining metodikalarini qo'llay olish; protsessual huquqqa oid bilimlarini qo'llash; amaliy faoliyatda va ilmiy-tadqiqot sohasida kasbiy vazifalarini anglash va uni to'g'ri qo'ya olish; maqsadga qaratilgan, holatga va respondentlar toifalariga qarab psixodiagnostik metodikalarni tanlash va ishlatish; shuningdek, olingan natijalarni

matematik-statistik qayta ishlash va ularni izohlash; tasdiqlangan shakllarda reja va hisobot tuzish; yosh davrlari xususiyatini, rivojlanish inqirozlari va xavf omillarni, ularning gender, etnik, professional va boshqa ijtimoiy guruhlarni inobatga olgan holda insonning psixik funksiyalari, xususiyatini aniqlash; bilish jarayonlarining rivojlanish darajasi va motivatsion-irodaviy sohalar, o'z-o'zini anglash, psixomotorika, qobiliyatlar, xarakter, temperament, funksional holatlar, shaxs xislatlari va inson psixik jarayonlarining og'ishdagi va normadagi aksentuatsiya xislatlarini psixologik diagnostika qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

3.3.12. Sud ekspertizasi vazifalari bilan bog'liq tadqiqotlarda klinik psixolog, psixolog va tibbiy psixolog:

Sud ekspertizasi va mutaxassis ishtirokini tartibga solishga oid protsessual qonunchilik hujjatlarini; jinoyat, fuqarolik, oilaviy qonunlar, ekspert xulosasining huquqiy oqibatlari to'g'risidagi boshqa qonunlarni (ekspertlar komissiyasi); "Sud ekspertizasi" to'g'risidagi qonunni; sud ekspertologiyasi, huquqiy psixologiya, psixolog ishtirokidagi sud ekspertizasining nazariyasi va metodologiyasi, jinoyat va fuqarolik protsessida sud ekspertizasining predmet turlarining o'ziga xosligi va huquqiy ahamiyatini; sud-psixologik ekspert tadqiqotining asosiy usullarini; jinoyat va fuqarolik protsessida turli xil kompleks sudga oid psixologik-psixiatriya ekspertizasi (KSPPE) subyektlarida yuridik ahamiyatga ega qobiliyatlarni, aqliy xususiyatlarni, jarayonlarni, holatlarni aniqlash uchun sud-psixologik ekspert mezonlarini; sud-psixologik va kompleks sud-psixologik-psixiatriya ekspertizalarining axloqiy tamoyillarini **bilishi;**

kompleks sudga oid psixologik-psixiatriya ekspertizasi (KSPPE) tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim) bilan tanishish, ekspert-psixologik tadqiqot rejasini tuzish; KSPPE jarayonida jinoyat yoki fuqarolik ishi hujjatlarini klinik-psixologik hamda psixolog, tibbiy va boshqa hujjatlar tahlili, ko'chirmalar olish va tizimlashtirish; KSPPE jarayonida ekspert psixologik tadqiqot o'tkazish va xulosa tuzish; sud-psixiatriya ekspertizasi, tirik shaxslarni kompleks psixiatrik ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etish (o'limdan keyin); KSPPE jarayonida komissiya a'zosi sifatida sud-psixologik-psixiatriya ekspert komissiyasining ishida ishtirok etish; yakuniy hujjatni tayyorlash va rasmiylashtirish; ekspert xulosasini berishning iloji yo'qligi to'g'risida yozma xabarnoma, ekspertiza o'tkazilgan sharoitda ekspert masalalarini hal qilishning mumkin emasligi to'g'risidagi xulosalar berish; protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish, shu jumladan, tergovchi (sud) tomonidan chaqirilganda ekspertlar komissiyasining (KSPPE) ushbu xulosasiga tushuntirishlar va qo'shimchalar kiritish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

3.4. Psixologik yordamni rad etish yoki to'xtatish

3.4.1. Psixolog quyidagi holatlarda psixologik yordam ko'rsatishdan bosh tortishi kerak:

psixologik yordam so'rab murojaat etgan shaxsning muammolari uning psixologik holati bilan bog'liq bo'lmasa;

mijozda tibbiy aralashuvni talab qiluvchi psixik va/yoki somatik kasalliklarning alomatlari yoki belgilari, uchinchi shaxslarning hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi psixik va xulq-atvor buzilishlari mavjud bo'lsa;

mijozda maxsus tibbiy davolashni talab qiluvchi psixoemotsional holatning yomonlashuvi kuzatilsa va bu holatni psixologik qo'llab-quvvatlash vositalari bilan bartaraf etib bo'lmasa;

psixolog tegishli psixologik yordam sohasida malakali yordam ko'rsatish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasa;

mijoz va psixolog o'rtasida ko'p qirrali munosabatlar (shaxsiy munosabatlar, nikoh, yaqin qarindoshlik yoki do'stlik) mavjud bo'lsa;

psixologik yordam ko'rsatilayotgan muassasadagi shart-sharoitlar tegishli talablarga javob bermasa.

3.4.2. Psixolog quyidagi hollarda psixologik yordamni to'xtatishi mumkin:

psixologik yordam so'rab murojaat etgan shaxs psixologning tavsiyalariga rioya etmasa;

psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnoma shartlari mijoz tomonidan buzilsa;

psixologning hayoti va sog'lig'iga tahdid yuzaga kelsa;

mijozga maxsus tibbiy yordam zarur bo'lib, uni maxsus davolash-profilaktika muassasasiga yo'naltirish lozim bo'lsa.

3.4.3. Psixolog psixologik yordamni rad etgan yoki to'xtatgan taqdirda, uning sabablarini mijozga, uning qonuniy vakillariga yoki faoliyat yuritayotgan tegishli tashkilot rahbariga ma'lum qilishi kerak.

3.4.4. Psixologik yordamni rad etish yoki to'xtatish, shuningdek, mijozni maxsus davolash-profilaktika muassasasiga yo'naltirish bo'yicha barcha jarayonlar qonuniy hujjatlashtirilishi va psixologik yordam ko'rsatish turlari bo'yicha hisob-kitob jurnalida tegishli tartibda rasmiylashtirilishi zarur.

3.5. Psixologik yordam ko'rsatish joyiga nisbatan qo'yiladigan talablar

3.5.1. Psixologik yordam ko'rsatish joyi sanitariya-epidemiologiya talablari, xavfsizlik me'yorlari va psixologik yordam ko'rsatish bilan bog'liq o'zaro munosabatlarning maxfiyligini ta'minlash shartlariga mos bo'lishi kerak. Psixologik yordam ko'rsatiladigan joy yordam turlarining o'ziga xosligi va mijoz toifalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

3.5.2. Psixologik yordam ko'rsatiladigan asosiy xona:

izolyatsiyalangan, zarur mebellar bilan jihozlangan va yetarli darajada yoritilgan; xonada zaruriy harorat me'yorlari (iqlim sharoitiga qarab, havo harorati 18-20°C) saqlangan va maxfiylikni ta'minlash uchun tegishli ovoz o'tkazmaslik sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak.

3.5.3. Psixologik yordam ko'rsatiladigan xona va binoning favqulodda chiqish eshigi va yo'lagidan foydalanishda to'sqinlik bo'lmasligi kerak. Mebel va uskunalar joylashuvini rejalashtirishda evakuatsiya yo'llarining ochiq va erkin bo'lishi ko'zda tutilishi lozim. Elektr jihozlari va yoritish tizimlari elektr xavfsizligi talablariga mos kelishi kerak.

3.5.4. Guruh shaklida psixologik yordam ko'rsatilganda guruh dinamikasi, ishtirokchilar soni va ishlatiladigan usullar hisobga olinishi zarur. Xonada mashg'ulot rejalashtirilishi guruh ishining vazifalariga mos ravishda makonni o'zgartirish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

3.5.5. Voyaga yetmaganlarga psixologik yordam ko'rsatish, makonni tashkil etish, usullar va jihozlardan foydalanishda yosh xususiyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixologik xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilish talab etiladi.

3.5.6. Olis, qiyin yetib boriladigan, tabiiy va texnogen favqulodda holatlar yuz bergan hududlarda standart sharoitlarni ta'minlashning imkoni bo'lmasa yoki cheklansa, psixologik yordam ko'rsatishda xavfsizlik va maxfiylikning asosiy talablari bajarilishi zarur. Shuningdek, joyning va aholi yashash hududining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

3.5.7. Psixologik yordam ko'rsatish joyini o'zgartirishni talab qiluvchi, masalan, yordam oluvchining holati yoki boshqa obyektiv omillar bilan bog'liq vaziyatlarda, psixologik yordam boshqa joylarda ko'rsatilishi mumkin. Bunday hollarda xavfsizlik, maxfiylik va kasbiy-axloqiy tamoyillariga rioya qilish majburiydir. Psixologik yordam ko'rsatish joyini vaqtincha o'zgartirishda ishning standart formatiga qaytish muddati va shartlari aniqlanishi, shuningdek, o'zgartirilgan sharoitlarda ko'rsatiladigan xizmat sifatini ta'minlash rejasi ishlab chiqilishi lozim.

3.5.8. Psixologik yordam ko'rsatish joyining belgilangan talablarga muvofiqligi muntazam ravishda baholanib, nazorat qilinishi kerak. Agar psixolog, davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan nomuvofiqlik aniqlansa, bunday kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rilishi zarur.

3.5.9. Yuqorida keltirilgan psixologik yordam ko'rsatish joyiga qo'yiladigan talablar masofaviy format, real vaqt rejimida psixologik yordam ko'rsatishga tatbiq etilmaydi, maxfiylik va kasbiy xususiyatlarga qo'yiladigan talablar bundan mustasno.

3.5.10. Masofaviy formatda psixologik yordam ko'rsatishda psixologning joylashgan joyi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi kerak. Xona audio va video aloqa o'rnatish imkonini beruvchi texnik vositalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Favqulodda holatlarda ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlangan taqdirda, xonaga qo'yilgan talablarga rioya qilmasdan psixologik yordam ko'rsatishga ruxsat beriladi.

3.6. Psixologik yordam so'ragan shaxsni ma'lumot bilan ta'minlash

3.6.1. Psixolog quyidagi ma'lumotlarni psixologik yordam so'ragan shaxsqa taqdim etishi kerak: ma'lumoti darajasi, mutaxassis va psixolog sifatidagi malakasi; mijozda psixologik yordam davomida foto-video va ovoz yozuvlaridan voz kechish hamda psixologik yordamni istalgan bosqichda rad etish, shu bilan birga psixologik yordamning shakli, turi va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjat nusxasini olish huquqi mavjudligi.

3.6.2. Psixolog mijozga yordam shakli, turi va yordam ko'rsatish metodlari, shuningdek, psixologik baholash va diagnostika usullariga mos keladigan darajada boshqa zaruriy ma'lumotlarni ham taqdim etishi maqsadga muvofiq.

3.6.3. Psixolog psixologik yordam natijasida ma'lum bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylikni saqlash huquqi to'g'risida mijozni xabardor qilishi kerak.

3.6.4. Psixolog mijoz yoki uning qonuniy vakillarini maxfiylik chegaralari haqida quyidagi holatlarda xabardor qilishi kerak:

mijoz yoki uchinchi shaxslarning hayoti va sog'lig'i uchun tahdid mavjud bo'lsa;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonida xavf-xatar mavjud bo'lsa;

agar uchinchi tomon psixologik yordamni talab qilsa va/yoki to'lovni amalga oshirsa hamda mijoz o'z shaxsiy ma'lumotlarini ushbu tomonlarga oshkor qilishga rozilik bergan bo'lsa;

ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida psixologik yordam ko'rsatilayotgan hollarda yoki sud-psixologik ekspertiza o'tkazilayotgan vaziyatlarda;

sud jarayonlari bilan bog'liq yoki tergov oldi tekshiruvlarida tergov, prokuratura yoki sud organlari tomonidan yozma so'rov kelib tushgan hollarda;

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha sudning so'rovi kelib tushgan hollarda;

shaxsni oshkor qilish imkonini bermaydigan shaxsiy ma'lumotlardan psixologik yordam sifatini oshirish va ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash maqsadida foydalanishda.

3.6.5. Psixolog qonun tomonidan belgilangan tartibda psixologning kasbiy faoliyati va siriga oid ma'lumotlarni olgan shaxs bu ma'lumotlarni oshkor qilish va uchinchi shaxslarga berishga haqli emasligi haqida mijozni xabardor qilishi kerak.

3.6.6. Psixolog mijozga psixologik yordam ko'rsatish natijasida ma'lum bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, yozib olish va saqlash shartlari haqida ma'lumot berishi kerak.

3.6.7. Psixolog mijozga psixologik yordam ko'rsatish natijasida ma'lum bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarining saqlanish muddati va ushbu ma'lumotlardan boshqa shaxslarning foydalanish, xabardor bo'lish mumkinligi haqida ma'lumot taqdim etishi lozim.

3.6.8. Psixolog mijozga qonunchilikda belgilangan toifalarga tegishli shaxslarga bepul psixologik yordam ko'rsatish tartibi, psixologik yordamning taxminiy davomiyligi va to'lov shartlari, shuningdek, psixologik yordamni rad etish yoki to'xtatish asoslari haqida ma'lumot taqdim etishi zarur.

3.6.9. Psixolog mijozga ma'lumotni tushunarli tilda, shuningdek, uning yosh va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etishi lozim.

3.7. Psixologik yordam ko'rsatish standartiga rioya etilmasligi bo'yicha da'vo va shikoyatlarni topshirish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqish tartibi

3.7.1. Aholiga psixologik yordam ko'rsatish sohasida yuzaga kelgan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

3.7.2. Aholiga psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha qonunchilikni buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

3.7.3. Psixologik yordam ko'rsatish standartiga rioya etilmasligi bo'yicha da'vo va shikoyatlarni topshirish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.7.4. Psixologlar jamoat birlashmasida psixologik yordam ko'rsatish standartiga rioya etilmasligi bo'yicha da'vo va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun o'dob-axloq qo'mitasi tashkil etilishi kerak. Ushbu qo'mita o'z a'zolari tomonidan psixologik yordam ko'rsatish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari va axloq kodeksiga rioya etilishini nazorat qiladi.

3.7.5. Psixologlar jamoat birlashmasi psixologik yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi shaxslarni o'rnatilgan tartibda o'z a'zolidan chiqarish, ularga berilgan malaka sertifikatlarini to'xtatish yoki bekor qilish huquqiga ega.

4. Xususiy tartibda psixologik yordam ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun malaka sertifikati taqdim etish

4.1. Xususiy tartibda psixologik yordam ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun taqdim etiladigan malaka sertifikati – bu, jismoniy shaxsga tegishli sohalarda xizmat ko'rsatish (ish bajarish) huquqini beruvchi hujjat bo'lib, uning berilishi, to'xtatilishi va bekor qilinishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Xususiy tartibda psixologik yordam ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun malaka sertifikati psixologga psixologlar jamoat birlashmasi tomonidan beriladi. Shu bilan birga, psixolog faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi psixologlar jamoat birlashmasidan malaka sertifikatini olish huquqiga ega.

4.3. Malaka sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish uchun pasport quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: sertifikatning nomi, sertifikat oluvchi shaxslar toifasi, sertifikatni beruvchi vakolatli organning nomi, sertifikat olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, to'lov miqdori, arizani ko'rib chiqish muddati, sertifikatni olish uchun talab va shartlar, sertifikatning amal qilish muddati, malaka imtihonini o'tkazish tartibi.

5. Psixologik yordam ko'rsatish standartlarini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilotlar.

1. Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.
2. O'zbekiston Milliy universiteti.
3. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent filiali.
4. O'zbekiston Psixologlar assotsiatsiyasi.
5. "Profi University" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti.
6. International School of Finance Technology and Science instituti
7. Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi.

8. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar nodavlat oliy ta'lim tashkiloti.
9. Samarqand davlat chet tillari instituti

6. Foydalanilgan adabiyotlar va resurslar ro'yxati

1. Zakon Respubliki Uzbekistan “Ob okazanii psixologicheskoy pomoshchi naseleniyu” ot 5-noyabrya 2024 goda № ZRU-989.
2. Postanovleniye Prezidenta Respubliki Uzbekistan “O merax po dalneysheму sovershenstvovaniyu Natsionalnoy sistemy kvalifikatsiy Respubliki Uzbekistan” ot 30.09.2024 g. № PP-345.
3. Postanovleniye Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan «O sistematzatsii normativnykh pravovyx aktov, reguliruyushix okazaniye gosudarstvennykh uslug po vydache kvalifikatsionnykh sertifikatov» № 635 ot 30-noyabrya 2023 g.
4. Postanovleniye Uzbekskogo agentstva standartizatsii, metrologii i sertifikatsii “Ob utverjdenii gosudarstvennogo standarta Respubliki Uzbekistan (Gosudarstvennyy standart (XALIKK-2020) Klassifikator osnovnykh doljnostey slujashix i professiy rabochix” ot 06.05.2021 g. № 05-1288.
5. Postanovleniye Komiteta sanitarno-epidemiologicheskogo blagopoluchiya i obshchestvennogo zdorovya pri Ministerstve zdravooxraneniya Respubliki Uzbekistan “Sanitarno-epidemiologicheskiye trebovaniya k usloviyam i organizatsii obucheniya v obshchobrazovatelnykh shkolax” ot 22-dekabrya 2016 goda (SanPiN №0341-16).
6. Ethical principles of Psychologists and Code of Conduct. American Psychological Association, 2017. 20 p.
7. European Certificate in Psychology. EFPA Regulations on EuroPsy and Appendices. European Federation of Psychologists' Associations, 2023. 92 p.
8. The Australian Psychological Society Code of Ethics. Melbourne, 2007. 32 p
9. Velichkovskiy B. B. Yevropeyskiy psixologicheskiy sertifikat YeuroPsy // Natsionalnyy psixologicheskiy jurnal. 2010. №1 (3). S. 94-96.
10. Lindsey Dj. Mejnatsionalnoye regulirovaniye eticheskix voprosov i razrabotka Meta-kodeksa etiki YEFPA // Natsionalnyy psixologicheskiy jurnal. 2012. №1 (7). C. 33-41.
11. Maksutova N.G., Yarigin V.N. Analiz standartov okazaniya psixologicheskix uslug detyam i ix semyam (otechestvennyy i zarubejnyy opyt) [Elektronnyy resurs] // Klinicheskaya i spetsialnaya psixologiya. 2013. Tom 2. № 4. URL: https://psyjournals.ru/journals/cpse/archive/2013_n4/ Maksutova_Yarigin (data obrasheniya: 10.11.2024).
12. Manichev S. A. Professionalnye standarty kak osnova sertifikatsii v oblasti psixologii // Psixologiya. Psixofiziologiya. 2008. №32 (132). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnye-standarty-kak-osnova-sertifikatsii-v-oblasti-psihologii> (data obrasheniya: 12.11.2024).
13. Manichev S.A. Psixologicheskaya praktika: ugrozby i regulirovaniye // Vestnik SPbGU. Seriya 16: Psixologiya. Pedagogika. 2012. №4. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-praktika-ugrozy-i-regulirovanie>
(data obrasheniya: 12.11.2024).

14. Sbornik rekomendatsiy po sotsialnomu soprovojeniyu VICH-infitsirovannykh (keys-menedjmeent). M., 2008. 113 s.

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
2024 yil 25 12 dagi
400 - sonli buyrug'iga
2-ilova

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

**TIBBIY PSIXOLOGIYA BO'YICHA
KLINIK STANDARTLAR**

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

Tibbiy psixolog-psixoterapevtning Malakaviy talablari	4
Tibbiy psixolog-psixoterapevt» ixtisosligi mutaxassisligini olish uchun shifokorlarni oliy ta'limdan keyingi kasbiy tayyorlash standartini o'zlashtirishning me'yoriy muddatlari	4
Kasbiy tayinlash va "Tibbiy psixolog-psixoterapevt" mutaxassisligiga, malakasi va lavozimiga muvofiqligi	5
Oliy ta'limdan keyingi kasbiy ta'lim dasturi asosida magistratura, klinik ordinatura yoki tibbiy psixolog-psixoterapevt bo'yicha birlamchi ixtisoslashtirish kurslarini tugatgan va malakasini olgan shifokorlarni tayyorlash darajasiga qo'yiladigan malakaviy talablar	6
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning psixosomatik markazlar va psixosomatik bo'limlardafunksional majburiyatlari	10
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning klinikalardagi maslahat poliklinikalarida funksional majburiyatlari	11
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning nevrologiya va neyroxirurgiya xizmatida funksional majburiyatlar	11
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning psixiatriya xizmatida funksional majburiyatlari	12
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning psixonevrologik dispanserda funksional majburiyatlari	13
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning bolalar psixonevrologik dispanserida funksional majburiyatlari	13
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning narkologik dispanserda funksional majburiyatlari	15
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning tez tibbiy yordam tizimida funksional majburiyatlari	16
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning kardiologiya xizmatida funksional majburiyatlari	17
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning shahar klinikalari va birlashtirilgan tuman shifoxonalarida funksional majburiyatlari	18
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning onkologiya xizmatida funksional majburiyatlari	18
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning pediatriya klinikasi va poliklinikalarida funksional majburiyatlari	19
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning oilaviy poliklinikada funksional majburiyatlari	20
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning akusherlik va ginekologiya xizmatida funksional majburiyatlari	20
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning harbiy tibbiyot xizmatida funksional majburiyatlari	21
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning favqulodda vaziyatlar tizimida funksional va majburiyatlari	22
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning sport tibbiyotida funksional majburiyatlari.....	22
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning pulmonologiya va ftiziatriya xizmatida funksional majburiyatlari	23
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning OITS ga qarshi kurashish xizmatida funksional majburiyatlari	24
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning dermatologiya va venerologiya xizmatida funksional majburiyatlari	25
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning urologiya xizmatida funksional majburiyatlari	25
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning bolalar va o'smirlar mehribonlik uylarida funksional majburiyatlari	26
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning gerontologiya xizmatida funksional majburiyatlari	27
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning dam olish sixatgohlarida funksional majburiyatlari	28

Tibbiy psixolog-psixoterapevtning rehabilitatsiya markazlari va bo‘limlarida funksional majburiyatlari	28
Tibbiy psixolog-psixoterapevtning xususiy klinikalar va psixologik Markazlarda funksional majburiyatlari	29
Sud tibbiyoti xizmatida tibbiy psixolog-psixoterapevtning funksional majburiyatlari	29
Tibbiy psixolog-psixoterapevt kabineti haqida	30
Tibbiy muassasadagi psixologning malakaviy talablari	34

TIBBIY PSIXOLOGIYA BO'YICHA

KLINIK STANDARTLAR

I. Malakaviy talablar

1. Oliy ta'limdan keyingi kasbiy ta'lim (ordinatura, magistratura) yoki "Tibbiy psixolog-psixoterapevt" bo'yicha birlamchi ixtisoslashtirish to'g'risida mutaxassislik sertifikatini.
2. Tibbiy OTM larda "davolash ishi" yunalishi, shu jumladan "pediatriya" yunalishi buyicha bakalavriaturani tamomlagan va "Tibbiy psixologiya-psixoterapiya" buyicha klinik ordinatura yoki magistraturani tugatganligi to'g'risida diplomga ega bo'lgan shifokorlarga "Tibbiy psixolog-psixoterapevt" mutaxassisligi bo'yicha ixtisoslik olish huquqi beriladi.

II. «Tibbiy psixolog-psixoterapevtiya» ixtisosligi bo'yicha «tibbiy psixolog-psixoterapevt-psixoterapevt» mutaxassisligini olish uchun shifokorlarni oliy ta'limdan keyingi kasbiy tayyorlash standartini o'zlashtirishning me'yoriy muddatlari

- «Tibbiy psixolog-psixoterapevt» mutaxassisligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi kasbiy tayyorlash standartini o'zlashtirish muddatlari quyidagilar:
- "umumiy amaliyot shifokori", "umumiy pediatr" mutaxassisliklari bo'yicha shifokorlik diplomini olgan oliy tibbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun «Tibbiy psixolog-psixoterapevt» mutaxassisligi bo'yicha klinik ordinaturada o'qish muddati – 2 yil, magistraturada – 3 yil;
- vrach-psixiatrlar uchun «Tibbiy psixolog-psixoterapevt» mutaxassisligi bo'yicha qo'shimcha ixtisoslik sikllarida kasbiy qayta tayyorlash – 2 oy (288 soat).
- tibbiy psixolog-psixoterapevt tibbiy psixolog-psixoterapevt bo'yicha umumiy malaka oshirish muddati – 1 oy (144 soat), mavzuiy malaka oshirish muddatlari – 1 oy (144 soat).
- tibbiy psixolog-psixoterapevt har 5 yil davomida 288 soatdan kam bo'lmagan hajmda o'z malakalarini oshirib turishlari shart.

III. Kasbiy tayinlash va «Tibbiy psixolog-psixoterapevt» mutaxassisligiga, «Tibbiy psixolog-psixoterapevt» malakasi va lavozimiga muvofiqligi

Tibbiy psixolog-psixoterapevtning kasbiy faoliyati quyidagi muassasalarda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarida (tuman (shahar) ko'ptarmoqli markaziy poliklinikasi, shahar, viloyat va respublika psixonevrologiya dispanserlari va ruhiy kasalliklar shifoxonalari, narkologiya dispanserlari va shifoxonalari, respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi);

xususi klinikalarda.

Vrach- tibbiy psixolog-psixoterapevtning asosiy funksional vazifalari:

- Kattalar va bolalar yoshidagi bemorlarga malakali psixologik yordam ko'rsatish;
- davolash-qo'riqlash rejimi va tibbiy deontologiya qoidalari asosida bemorlarning zarur bo'lgan parvarishini ta'minlash;
- davolovchi shifokor yo'nalishi bo'yicha psixodiagnostika teshiruvlarini o'tkazish, yuqori ruhiy funksiyalarning (idrok qilish, tafakkur, diqqat, xotira, emotsiyalar, iroda, intellekt) holatini aniqlash;
- somatik, ruhiy yoki narkologik kasalliklarga chalingan bemorlarda ruhiy va xulq-atvor buzilishlarini tekshirish, tashxislash va differensial tashxislashda ishtirok etish, bemorning psixologik holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni baholash;
- bemorning psixologik holatidagi o'zgarishlarni ro'yxatga olish va shaxsni psixologik korreksiyalash uchun zarur choralarni belgilash;
- bemorlarning psixologik maslahatini o'tkazish, shaxsning psixologik korreksiyasi bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- bemorning individual davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- psixoterapevtik guruhlar faoliyatini tashkil etishda ishtirok etish, barcha turdagi ijtimoiy-psixologik treninglar va guruhli psixoterapiya mashg'ulotlarini o'tkazish;
- davolash va rehabilitatsiya jarayonlarida, ambulator va statsionar tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlarida faol ishtirok etishga motivatsiyalash;
- rehabilitatsiya brigadasi a'zosi sifatida tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etish;

- oilaviy psixoprofilaktika maslahatini o‘tkazish, psixoaktiv moddalarga qaramlik holatlarida - bemorning hamkor tobelikka chalingan oila a’zolariga malakali psixologik yordam ko‘rsatish;
- tibbiyot xodimlarga ularning psixologik muammolarini hal qilishda yordam berish;
- buyurilgan muolajalarni o‘rta va kichik tibbiyot xodimlari tomonidan o‘z vakolatlariga muvofiq to‘g‘ri va o‘z vaqtida bajarilishini tekshirish;
- tibbiy psixolog-psixoterapevtiya va deontologiya sohasida o‘rta va kichik tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazishda ishtirok etish;
- o‘tkazilayotgan psixologik chora-tadbirlar samaradorligini baholash;
- ish rejasini tuzish, belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq tibbiy hujjatlarni yuritish;
- klinik konferensiyalarda, bemorlarni tahlil qilishda, seminarlarda, kasbiy yo‘naltirilgan treninglarda, superviziyalarda ishtirok etish orqali o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borish;

IV. Oliy ta’limdan keyingi kasbiy ta’lim dasturi asosida magistratura, klinik ordinatura yoki tibbiy psixolog-psixoterapevt bo‘yicha birlamchi ixtisoslashtirish kurslarini tugatgan va "Tibbiy psixolog-psixoterapevt" malakasini olgan shifokorlarni tayyorlash darajasiga qo‘yiladigan malakaviy talablar

Magistraturada, klinik ordinaturada yoki tibbiy psixolog-psixoterapevt bo‘yicha birlamchi ixtisoslashtirish kurslarida tayyorgarlik o‘tgan tibbiy psixolog-psixoterapevt o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar:

Tibbiy psixolog-psixoterapevt bilishi lozim:

- inson huquqlari bo‘yicha xalqaro qonunchilik asoslari, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolar sog‘lig‘ini muhofaza qilishga oid qonunchilik va sog‘liqni saqlashni boshqarish asoslari, sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi buyruqlar, nizomlar, yo‘riqnomalarni;
- O‘zbekiston Respublikasida somatik, ruhiy va narkologik bemorlarga shifoxonadan tashqari va statsionar sharoitida yordam tashkil etishni;
- umumiy psixologiya asoslarini: «ruhiy hodisalar» tushunchasining ta’rifi, ruhiy jarayonlar, ruhiy holatlarning tasnifi, shaxsning ruhiy xususiyatlari;

- ruhiy jarayonlarning xususiyatlarini: sezgi va idrok, tafakkur va aql, diqqat va xotira, his-tuyg‘ular va iroda;
- shaxsni, uning tuzilishini, ehtiyojlar va qadriyatlar iyerarxiyasini, temperament va xarakter xususiyatlarini;
- shaxs xususiyatlari va ruhiy jarayonlar psixodiagnostikasining asosiy usullarini;
- “psixologik himoya” va koping-xulq-atvor mexanizmlari to‘g‘risida tushunchani;
- sotsial psixologiya asoslarini: vazifalari, usullari, guruhlar va shaxslar sotsial psixologiyasi, muloqot;
- klinik psixologiyaning nazariy va uslubiy asoslarini;
- “neyropsixologiya” tushunchasining ta’rifini, analizatorlarning ishlash tamoyillari, asosiy ruhiy jarayonlarning va xulq-atvorni nazorat qilishning neyropsixologik mexanizmlarini;
- "patopsixologiya" tushunchasining ta’rifini, vazifalari, usullari, ruhiy jarayonlarning asosiy buzilishlarini;
- oila psixologiyasi asoslarini: oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning turlari, qonuniyatlari, ko‘rsatkichlari, oilaning hayot siklini;
- psixogigiyena va psixoprofilaktika asoslarini;
- tibbiy psixolog-psixoterapevt ishini tashkil qilishda deontologiya talablarini;
- “yatrogen kasalliklar”ning sabablari va klinik belgilarini;
- anomal rivojlanish psixologiyasini;
- jamiyatda qabul qilingan me’yorlardan chetga og‘uvchi (deviant) xulq-atvor psixologiyasi, me’yordan chetga og‘uvchi (deviant) xulq-atvorning asosiy (addiktiv, suitsidal, agressiv, asotsial) shakllarini;
- psixosomatika asoslarini: psixosomatik buzilishlarning sabablari, klinik belgilari, diagnostika va differensial diagnostika usullarini;
- asosiy psixopatologik simptom va sindromlarni (nevrotik va nevrozsimon, affektiv, vasvasaviy va gallyutsinator-vasvasaviy, ongning buzilishi, katatonik, tutqanoqli, amnestik sindromlar, aql zaiflik (demensiya) sindromlari);
- ruhiy buzilishlarni tashxislashning klinik va paraklinik usullarini;
- asosiy ruhiy kasalliklarning (shizofreniya, epilepsiya, bipolyar psixoz, shaxs buzilishlari, nevrozlar, reaktiv va somatogen psixozlar, miyaning organik kasalliklari, aqliy zaiflik) klinik belgilari va kechishini;

- bolalik va o‘smirlik davriga xos ruhiy reaksiyalarning xususiyatlarini, yoshga oid krizlarni, xarakterologik va patoxarakterologik reaksiyalar, shaxs shakllanishining buzilishlarini;
- bolalik va o‘smirlik davriga xos psixopatologik simptom va sindromlarning xususiyatlarini;
- ruhiy buzilishlarning psixofarmakologiyasi va farmakoterapiyasi asoslarini;
- narkologik kasalliklarning (alkogolizm, narkomaniya, toksikomaniya) kelib chiqish sabablarini, klinik belgilarini, tashxislash va davolash usullarini;
- nevrologik, yurak-qon tomir, endokrin, onkologik, jarrohlik, urologik, ginekologik, teri-tanosil, infeksiyon (OIV/OITS, gepatitlar, tuberkulez) va boshqa kasalliklarda psixologik muammolarni va ruhiy buzilishlarni;
- jinsiy buzilishlarning kelib chiqish sabablari va klinik belgilarini;
- texnogen falokatlar natijasida yuzaga keladigan ruhiy buzilishlarni;
- klinika sharoitida ko‘rsatiladigan psixologik yordam asoslarini: psixologik maslahatning asosiy tamoyillarini, diagnostika va terapevtik jarayonni psixologik qo‘llab-quvvatlashni;
- suitsid sodir etgan suitsidentlarga psixologik yordam ko‘rsatishni;
- nevrozlarda va shaxs buzilishlarida psixologik yordam ko‘rsatishni;
- ruhiy kasalliklarda psixologik yordam ko‘rsatishni;
- psixoaktiv moddalarga qaram bo‘lganlarga psixologik yordam ko‘rsatishni;
- ichki a‘zolar kasalliklari va asab tizimi kasalliklarida psixologik yordam ko‘rsatishni;
- OIV/OITS va boshqa infeksiyalarda psixologik yordam ko‘rsatishni;
- texnogen falokatlar yuz berganda psixologik yordam tashkil etishni;
- psixoterapiyaning asosiy yo‘nalishlarini: psixoanalitik, xulq-atvor, ekzistensial-gumanistik;
- psixoterapiya usullarini: motivatsion, suggestiv, kognitiv-xulq-atvor, ratsional, guruhli, emotsional-stress, tanaga yo‘naltirilgan, oilaviy psixoterapiya, transakt analizi, psixodrama, geshtalt terapiyasi, ijtimoiy-psixologik trening;
- tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya asoslari, rehabilitatsiya dasturlarining turlari, bosqichlari va mazmuni, rehabilitatsiya muassasalarining turlari, terapevtik jamoalarning tuzilishi va turlari, psixoaktiv moddalarga qaram bo‘lgan shaxslarga o‘ziga-o‘zi va o‘zaro yordam guruhlari tushunchasi;
- ruhiy kasallikka chalingan va psixoaktiv moddalarga qaram bo‘lgan shaxslarga zamonaviy ijtimoiy yordam usullarini qo‘llash.

-
- ***Tibbiy psixolog-psixoterapevt bajara olishi lozim:***
- bemorlarning davlat tomonidan kafolatlangan to‘liq hajmdagi tibbiy yordam olish huquqlariga rioya qilish, tibbiyot xodimlari tomonidan ularga hurmat va insonparvarlik munosabatida bo‘lish, bemordan olingan ma’lumotlarning maxfiyligini va shifokor sirini saqlash;
- davlat tomonidan kafolatlangan va tibbiy psixolog-psixoterapevt-psixoterapevtning malakaviy tavsifnomasida nazarda tutilgan hajmda ambulatoriya va statsionar sharoitda davolash-diaagnostika jarayonini tashkil etish;
- kattalar va bolalar o‘rtasida sog‘lomlashtirish, profilaktika va davolash-diaagnostika tadbirlarini o‘tkazishda tibbiy etika va tibbiy deontologiya qoidalariga rioya qilish;
- sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha psixologik tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish;
- oilaviy psixoprofilaktika maslahatlarini o‘tkazish;
- bemor va uning oilasining dolzarb psixologik muammolarini aniqlash;
- bemorlarni tekshirish uchun psixodiagnostika usullarini qo‘llash va
- eksperimental-psixologik tekshiruvlar natijalarini baholash;
- bemorning xarakterologik turini, ehtiyojlar iyerarxiyasini, motivlarini va qadriyatlarini aniqlash;
- chegaradosh ruhiy buzilishlar, psixoaktiv moddalarga qaramlik va psixosomatik kasalliklarning shakllanishiga olib keluvchi psixologik omillarni aniqlash;
- bemorning o‘z kasalligiga va davolanishga bo‘lgan munosabatini, uning tibbiy yordam olishga bo‘lgan munosabatini aniqlash;
- klinik usul yordamida bemorning ruhiy holatini, ruhiy kasalliklar va xulq-atvor buzilishlarining mavjudligini aniqlash;
- psixologik yordam ko‘rsatish, bemorning shaxsini va uning oila a‘zolari va atrofidaqilar bilan munosabatlarini korreksiyalash bo‘yicha reja tuzish;
- psixoterapiya va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiyaning bir nechta usullarini egallash, bemor bilan psixoterapevtik aloqa o‘rnatish;
- motivatsiyalash texnikalaridan foydalanish;
- ijtimoiy-psixologik treningning barcha turlarini o‘tkazish;
- shaxsni korreksiyalash va shaxsga yo‘naltirilgan psixoterapiya usullaridan foydalanish (transakt analizi, geshtalt-terapiya, art-terapiya va boshqalar);

- kognitiv-xulq-atvor psixoterapiyasi mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- kasallikning retsidivlarini oldini olishga qaratilgan psixologik chora-tadbirlar majmuini belgilash va amalga oshirish;
- rehabilitatsiya brigadasi a‘zosi sifatida tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etish, amalga oshirilayotgan rehabilitatsiya tadbirlari samaradorligini baholash;
- suitsid sodir etgan suitsidentlarga psixologik yordam ko‘rsatish;
- ruhiy kasallikka chalingan va psixoaktiv moddalarga qaram bo‘lgan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish;
- profilaktik hisobda turgan shaxslarda psixofaol moddalarni iste‘mol qilishni to‘xtatish va giyohvandlik shakllanishining oldini olishga qaratilgan psixologik chora-tadbirlar kompleksini belgilash va amalga oshirish;
- bemorning hamkor tobelikka chalingan oila a‘zolariga psixologik yordam ko‘rsatish;
- nevrologik, yurak-qon tomir, endokrin, onkologik, jarrohlik, urologik, ginekologik, teri-tanosil, infeksiyon (OIV/OITS, gepatitlar, tuberkulez) va boshqa kasalliklarda psixologik yordam ko‘rsatish;
- ayollarni tug‘ruqqa psixologik tayyorlashni amalga oshirish;
- jinsiy buzilishlarni psixologik korreksiyalashni amalga oshirish;
- texnogen falokatlar natijasida zarar ko‘rganlarga psixologik yordam ko‘rsatish;
- o‘rta va kichik tibbiy xodimlar, ijtimoiy yordam xodimi ishlarini tashkil etish;
- ish rejasini tuzish, tibbiy hisob va hisobot hujjatlarini yuritish, o‘z faoliyatining samaradorligini baholash.

Psixosomatik markazlar va psixosomatik bo‘limlarda tibbiy psixolog-psixoterapevtning funksional majburiyatlari

Psixosomatik markazlar va psixosomatik bo‘limlar ishini tashkillashtirish;

- mustaqil ravishda funksional va organik kasalliklarni farqlay olish;
- psixosomatik buzilishlar etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasini bilish va qiyosiy tashxis o‘tkaza olish;
- psixosomatik buzilishlar psixogigiyenasi va psixoprofilaktikasini o‘tkaza olish;
- psixosomatik buzilishlarda malakali psixoterapevtik va

- psixosomatik buzilishlarda gipnoterapiya o‘tkaza olish;
- psixosomatik buzilishlarda tibbiy-psixologik ekspertiza o‘tkaza olish.

Maslahat poliklinikalarida tibbiy psixolog-psixoterapevtning funksional majburiyatlari

maslahat poliklinikalari ish faoliyati va tartib-qoidalarini bilish;

- maslahat poliklinikalari sharoitida tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan kasalliklar va patologik holatlarni bilishi va shu yordamni ko‘rsata olishi;
- maslahat poliklinikasi sharoitida psixodiagnostika o‘tkazish, psixoterapevtik yordam ko‘rsata olish;
- zarur tibbiy xujjatlarni yurgiza olish;
- o‘z ish faoliyati hisobotini tayyorlash va ish samaradorligini baholay olish.

Nevrologiya va neyroxirurgiya klinikalarida tibbiy psixolog-psixoterapevtning funksional majburiyatlari

Neyroxirurgiya va nevrologiya klinikalarida “Tibbiy psixolog-psixoterapevtiya” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturani o‘tash davomida oliy ruhiy funksiyalar haqida maxsus tayyorgarlikni o‘tagan neyropsixologlar ishlashadi. Ushbu davr mobaynida ular bosh miyaning lokal va diffuz zararlanishlarida rivojlanadigan neyropsixologik buzilishlarda neyropsixologik diagnostika, neyropsixologik korreksiya va neyroreabilitatsiya metodlari bo‘yicha qo‘shimcha ta’lim olgan bo‘lishadi.

Neyropsixolog quyidagilarni bilishi kerak:

- oliy ruhiy funksiyalarning dinamik lokalizatsiyasi haqidagi ta’limotni;
- oliy ruhiy funksiyalarning struktur-funksional xususiyatlarini;
- bosh miyaning lokal va diffuz zararlanishlarida neyropsixologik tekshiruvlar o‘tkazish va nevrologik statusni tekshira olish;
- neyroxirurgik operatsiyalardan oldin va keyin neyropsixologik tekshiruvlar o‘tkazib topografik tashxisni qo‘yish;

- oliy ruhiy funksiyalar buzilishlarini neyropsixologik korreksiya qila olish;
- bosh miyaning lokal va diffuz zararlanishlarida, hamda neyroxirurgik muolajalardan so‘ng
- nevrologik kasalliklarda va neyroxirurgik muolajalardan so‘ng neyropsixoreabilitatsiya metodlarini o‘tkaza olish;
- zarur tibbiy xujjatlarni yurgiza olish;
- qilingan ishlar bo‘yicha hisobot tayyorlash va ish samaradorligini baholay olish.

Psixiatriya xizmatida tibbiy psixolog-psixoterapevtning funksional majburiyatlari

- psixiatriya shifoxonalarining ishlash prinsipini bilish;
- psixiatriyada bemorlarni tekshirish qonun-qoidalarini bilish;
